Хулоса қилиб айтганда, Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги савдо-иқтисодий ҳамкорликни янада чуқурлаштириш божхона тартиб-таомилларини рақамлаштириш, тўсиқларни бартараф этиш ҳамда минтақавий масштабдаги қўшма инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш орқали минтақада барқарор хавфсизликни таъминлашнинг энг муҳим кафолати бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Balassa B. The Theory of Economic Integration. — Homewood, IL: Richard D. Irwin, 1961.
2. Keohane R. O., Nye J. S. Power and Interdependence: World Politics in Transition. — Boston: Little, Brown, 1977.
3. Okano-Heijmans M. Conceptualizing Economic Diplomacy // The Hague Journal of Diplomacy. — 2011. — Vol. 6, No. 1–2. — P. 7–36.
4. Pomfret R. The Central Asian Economies since Independence. — Princeton: Princeton University Press, 2006.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Islom Xosilmurodov
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali assistenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni yoritiladi. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari va innovatsion metodlar orqali o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so’zi: O‘qituvchi, pedagogik faoliyat, innovatsiya, ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), innovatsion kompetensiya, ijodkorlik, zamonaviy ta’lim, loyiha asosida o‘qitish.

Globallashuv, raqamlashtirish va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bugungi kunda ta’lim tizimi ham jadal yangilanmoqda. Shu jarayonda o‘qituvchining roli yanada ortib, u faqat bilim beruvchi emas, balki innovator, motivator va ko‘rsatma beruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Innovatsion yondashuvlar – bu o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beruvchi pedagogik vositalardir.

Innovatsiya – ma‘lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo’llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma‘lum bo’lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta‘lim tizimidagi pedagogik innovatsiya – pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o’zlashtirish, nihoyat uni amaliyotda qo’llash haqidagi ta‘limot sifatida qaraladi.

Innovatsiyaning amaliyotda kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion jarayon deb – innovatsion o’zgarishlarga tayyorgarlik ko’rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Ta‘lim jarayonidagi innovatsion o’zgarishlar, ta‘lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o’qituvchi faoliyatini yangilash va o’zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Innovatsiya — yangilik, ilg‘or tajriba, ilg‘or texnologiyalarni yaratish va joriy etish degan ma’noni anglatadi. Ta’lim sohasida innovatsiya, asosan, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- Ta’lim metodlarini yangilash va moslashtirish;
- O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qo‘llash.

Ta‘lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta‘riflash imkoniyati paydo bo’ldi. Innovatsion faoliyat – bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo’lib, ijtimoiymadaniy ob‘ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub‘ektlarning harakat tizimi bo’lib, u ma‘lum doiradagi

muammolarni echish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni echish uchun motivasion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning taxlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq, etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: "Innovatsion faoliyatning tuzilishi -ijodiy yondashuv, ijodiy faollik yangalikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin".

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad-oqituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fantexnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan maxsulot yaratish bo'lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g'oyalar maydonida ham va alohida bir sub'yektning xarakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagina xaqiqiy innovatsion hisoblanadi.

Buning uchun pedagogik dunyoqarashning kengligi, pedagogika, psixologiya hamda metodika sohasidagi yangiliklardan boxabarlik, o'z hamkasblari ilg'or tajribalarini o'rganish va ommalashtirish yo'llarini egallaganlik talab etiladi. O'qituvchi muammoni hal etishga oid axborotlar bilan qay darajada kengroq tanish bo'lsa, eng maqbul va samarali echimini topish uchun qulayroq vaziyatni egallay oladi. Bugungi kunda pedagogika sohasi bo'yicha zamonaviy axborotlar bilan tanishish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Jumladan, pedagogika-psixologik adabiyotlar, gazeta va jurnallar, o'quv kurslari va seminarlarda malaka oshirish, ilg'or o'qituvchilarning darslarini tahlil qilish, o'z tajribasini o'rganish kabilar shular jumlasidandir.

Ammo, innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish uchun chuqur nazariy maqola va qo'llanmalar emas balki o'qituvchilar uchun tushunarli tilda bayon qilingan, amaliy metodik ishlanmalarni ko'proq etkazib berilishi ko'proq ko'mak beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati, muammolarni hal etish ko'nikmalari va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Qodirova N. "Innovatsion pedagogika", Toshkent, 2021.
2. Karimov I. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch", Toshkent, 2008.
3. 1. Zufarov Sh. Ta‗limda innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish: nazariya, tahlil va tasnif. Uslubiy qo ‗llanma. -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2010. 52-b.
4. Zufarov Sh.M. Pedagogik innovatika -T.: «Fan va texnologiya», 2012, 140-b.
5. Кларин М.В. Инновации в обучении: метафоры и модели: Анализ зарубежного опыта. -М.: «Наука», 1997.
6. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. -М.: «Арена», 1994.

QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARI GENETIKASI, SELEKSIYASI VA URUG‘CHILIGI: NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YUTUQLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Pardayeva Sabrina